

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOT INSTITUTI



**BURG'ILASH VA TAMPONAJ QORISHMALARI XOSSALARINI
BOSHQARISH**

FAN DASTURI

Bilim sohalari: 300 000 – Ishlabchiqarish-texnik soha

Ta'lif sohalari: 310 000 – Muhandislikishi

Ta'lif yo'nalishlari: 70721803 – Neft va gaz quduqlarini burg'ilash

Qarshi 2022 yil

Fan/modul kodi		O'quv yili 2022-2023	Semestr (lar) 3	ECTS - Kreditlar 6	
Fan/modul turi Majburiy		Ta'lif tili O'zbek/rus		Haftadagi dars soatlari 6	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lif (soat)	Jami yuklama (soat)	
	BURG'ILASH VA TAMPONAJ QORISHMALARI XOSSALARINI BOSHLARISH	90	90	180	
2.	Fanning mazmuni <p>2.1 Fanni o'qitish maqsadi va vazifalari</p> <p>Fanni o'qitishdan maqsad –Burg'ilash vatamponaj qorishmalari xossalarini boshqarishfani dasturi neft va gaz sanoatiga zarurbo'ladigan: burg'ilash va tamponaj qorishmalari, kimyoviy reagentlar va materiallar, burg'ilash va tamponaj qorishmalari tayyorlashda ushbu reagentlarning ahamiyati, ta'sir mexanizmi, quduqlarni burg'ilash va sementlash jarayonidagi kimyoviy jarayonlar, hamda ularning burg'ilash eritmasi va tamponaj qorishmalariga ko'rsatadigan ta'siri haqidagiboshlang'ich tushunchalarni o'z ichiga olgan bo'limlaridan tashkil topgan.</p> <p>Fanning vazifasi –neft va gaz quduqlarini burg'ilash jarayonida ishlatiladigan yuvuvchi suyuqliklar, mustahkamlovchi tamponaj qorishmalar, ularning turlari va vazifalari hamda burg'ilashda geologik qatlama sharoitiga mos burg'ilash va mustahkamlovchi qorishmalarni tanlash, shu bilan birga neft va gaz quduqlarni qurishda ishlatiladigan burg'ilash va sementqorishmalarini ko'rsatkichlarini boshqarishda ishlatiladigan kimyoviy reagentlar, ularning turlari va vazifalari to'g'risida ma'lumot berish. Burg'ilash davrida qatlama mos bo'lgan burg'ilash va mustahkamlovchi qorishmalarni tayyorlashni, tanlashni va ularga kimyoviy ishlov berishni hamda kimyoviy reagentlarning ta'sir mexanizmini o'rgatadi hamda quduq qurilishining tannarxini pasaytirish kabi muammolarni yechish kabi vazifalarni talabalarga o'rgatishdan iborat.</p> <p>2.2 Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)</p> <p>Fan tarkibi mavzulari:</p> <p>1-mavzu.Burg'ilash eritmalarining vazifalari</p> <p>Neft va gaz quduqlarini burg'ilash tarixi. Neftgaz sanoati tizimida burg'ilash va tamponaj qorishmalarini ahamiyati.Neft va gaz quduqlarini burg'ulashda ishlatiladigan burg'ilash qorishmaliari yaratilishidagi muammolar.Neft va gaz quduqlarini burg'ilash jarayonlarida gidrodinamik, hidrostatik va quduq devorilarida hosil bo'ladigan qobiq(korka)larning vazifalari</p> <p>2-mavzu. Tog' jinslarining quduq tubida yuvilishi</p> <p>Neft va gaz quduqlarini burg'ilashda chuqurlik ortishida burg'ilash qorishmalari yuvuvchi suyuqlik sifatida qo'llanilishi, chuqurlik ortishi davrida tog' jinslarini tozalab yerning yuzasiga olib chiqilishidagi roli keltirib o'tiladi</p> <p>3- mavzu. Neft va gaz uyumlariga ta'sir etish usullari</p> <p>Burg'ilash jarayonlarida burg'ilash qorishmaliari xar bir oraliq uchun uning parametri o'zgarib borishi va o'zgarish jaryonlarini fixik-kimyoviy taxlili o'rganib</p>				

boriladi.

4-mavzu. Burg‘ilash eritmalarini tarkibi va uning texnologik xossalaringin dolotolar ish samaradorligiga ta’siri.

Burg‘ilash jarayonlari davrida tog‘ jinslarini parchalashda ishtirok etuvchi mexanizmlar suyuqlik orqali xarakatning bir qismini qabul qiladi, burg‘ilash qorishmalari yuvish va mexanizlarnixarakatga keluvchi omil sifatida ishtirok etishini nazari va amaliy ko‘rib chiqish talab etiladi

5-mavzu. Burg‘ilash eritmalaridan foydalanish sharoitlari

Neft va gaz quduqlari burg‘ilash sharoitlari murakkablashib borishi orqali mahsuldor qatlamlar ochilishi ko‘zda tutilgan va bu sharoitni yuvuvchi suyuqliklar ishtirokisiz xozirda imkoniyat chegaralanganligi mavzusida nazariy va amaliy yechimlar ko‘rib chiqiladi.

6-mavzu. Burg‘ilash eritmalarining kolloid va kimyoviy xossalari

Dispers fazasi va dispersion muhit. Gilli qorishmalar disperssistemalardir. Gilliburg‘ilash qorishmalarkomponentlariningtarkibi. Gil-gilli burg‘ilash qorishmalarining faol qattiq fazasi. Asosiy gilsimon minerallarning tuzilishi va tarkibining o‘zigaxos fazatlari. Gidratatsiyaga yutilgan kation turivamineralogik tarkibining ta’siri, gillarning dispergatsiyalanishi va gil va gilli burg‘ilash qorishmalarining xossalari. Gil materiallari va ularning sifatini oshirish usullari. Gilliburg‘ilash qorishmalarini tayyorlashda qo‘llaniladigan hisob ishlari.

7-mavzu. Disperslik darajasi

Kolloid kimyoning asosida ikkita muhim tushuncha yotadi: dispersiyali muhit va dispers fazasi. Dispersiyali muhitda zarrachalar muallaq va dispers fazasi holatida bo‘ladi. Dispers fazasi va dispersiyali muhitdan tashkil topgan tana dispers tizimni tashkil qiladi.

8-mavzu. Dispers tizimlarni tayyorlash usullari

Har bir fizik tananing xossalari modda molekulalari xossalari bilan aniqlanadi, qaysiki ulardan tarkib topgan va berilgan tanada ushbu molekulalarning joylashuvi bilan belgilanadi. Biroq bir xil molekulalar turli xossalarga ega bo‘lishi mumkin.

9- mavzu. Burg‘ilash eritmalarining filtratlarini tahlil qilish

Eritmalarini tayyorlash. Burg‘ilash qorishmalar kimyoviy toza quruq moddalar va ularning fiksonallari (standart titrlar)dan tayyorlanadi. Birinchi holatlarda taxminiy konsentratsiyalari, koefitsientlari yordamida ularga aniqlash. Shishali ampulada (fiksonal bilan) quruq yoki qorishma ko‘rinishida moddalarning aniq miqdori taxlil qilinadi. Eng ko‘p tarqalgan qorishmalarini tayyorlash talab etilib boriladi.

10-mavzu.Suvning qattiqligini aniqlash

Suvning qattiqligi, tarkibi va ishlatiladigan suv xossasi. Suv tarkibidagi tuzlar (kalsiy yoki magniy) chuqurroq o‘rganib boriladi

Taxlil uchun olinadigan suv namunasining hajmi kalsiy va magniy tuzlarining miqdoriga va boshqa omillarga bog‘liqligi laboratoriya taxlillari natijasiorqali yoritib borish.

11-mavzu. Filtratlardagi ishg‘orlar miqdorini aniqlash

Burg‘ilash qorishmalaridagi ishqorlik darajasini aniqlash, bu jaryonlarni to‘liq kuzatib borish va uning matematik yoki kimyoviy aniqlash orqali tushintirib borish hamda ishqorning qorishmaga ta’siri o‘rganiladi.

12-mavzu. Burg‘ilash eritmalarining texnologik xossalari

Burg‘ilash eritmalarining reologik xossalari. Burg‘ilashda ishlatiladigan barcha turdagи suyuqliklarning harakatlanishi, oqish va suyuqliklardagi zarrachalarining joylashishining o‘zgarishi nazarda utildai. Suyuqliklarning deformatsiyalanish sodirva

ularning reologik xossalari paydo bo‘lishi kabi tushinchalar kengroq o‘rganiladi.

13-mavzu. Burg‘ilash qorishmalaring parametrini aniqlash

Neft va gaz quduqlarini burg‘ilash jaaryonida burg‘ilash qorishmalari bir necha turdag‘i vazifalarni bajarib o‘tadi, shu vazifalarni qanchalik to‘g‘riligini taxlil qilish uchun ularni fizik-kimyoviy parametrlarini bosqichma-bosqich aniqlab borish talab etiladi.

14-mavzu. Qorishmalar tarkibidagi qattiq zarrachalarning roli

Neft va gaz quduqlarini burg‘ilash jaryonida quduqning o‘qi bo‘ylab tog‘ jinslari parchalab boriladi va natijada qorishma tarkibida xar xil kattalikda tog‘ jinslari aralashib borishida texnologik vaziyatni qiyinlashtirish xolatlari kuzatiladi va ushbu xolatlarni bartaraf etilishi nazarda tutiladi.

15-mavzu. Burg‘ilash eritmalarining xossalari niburg‘ilash jarayoniga moslashtirish

Suv asosidagi burg‘ilash qorishmalarining texnologik xossalarni barqarorlashtirish. Neft va gaz quduqlarini burg‘ilashda tayyorladagan qorishmalarining assoini suv tashkil etadi. Suv asosidagi burg‘ilash qorishmalarining texnologik xossalarni tartibga solish, dispers fazalar konsentratsiyasi va fraksiyalar tartibining o‘zgarish nazarda tutildai. Kimyoviy reagentlar va komponentlar bilan qayta ishlashga asoslangan.

16-mavzu. Burg‘ilash qorishmalarining reologik, tiksotropik, koagulyatsiyalanish va filtirlanish xossalarni barqarorlashtirish

Burg‘ilash qorishmalarining reologik, tiksotropik kabi xossalarni tartibga solish dispers fazalar konsentratsiyasi va fraksiya tarkibining o‘zgarishiga va kimyoviy reagentlar va komponentlar bilan qayta ishlashga asoslangan. Reologik xossalarning dispers fazalar konsentratsiyasining orqali boshqariligi ko‘rib chiqildai.

17-mavzu. Burg‘ilash eritmalarini kimyoviy qayta ishlab va oddiy tayyorlashxom ashyolar

Gillar va ularning tasniflari. Qattiq tog‘ jinslaridan biri bo‘lgan gil va gilmoyalar asosidagi burg‘ilash qorishmalarining struktura va qobiq hosil qiluvchi asosiy komponentidir. Asosiy vazifasi, miqdori, to‘yinganlik miqdori, muhitda suspenziyalarni hosil qilish xolatlari.

18-mavzu. Burg‘ilash qorishmalarini tozalash

Burg‘ilash qorishmalarini tarkibida tog‘jinslarining shamlaridan tozalash neft va gaz quduq burg‘ilashning asosiy vazifasi hisoblanadi. Ortiqcha og‘ir fazalar burg‘ilashning texnik ko‘rsatkichlarini hamda burg‘ilashning texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlarini aniqlashtirish.

19-mavzu. Burg‘ilash qorishmalar sistemasida aylanishning texnologik sxemasi

Burg‘ilash qorishmasi aylanish tizimining tarkib orqali xarakatlanadi. Texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlariga qarab qorishma tayyorlanadi. Quduq burg‘ilashning geologik-texnik sharoitlariga, burg‘ilash qorishmalarining turi va xossalariiga bog‘liq. Quduq burg‘ilashda aylanish tizimi quduqning chuqurliliga bog‘liq xolda tayyorlanadi.

20-mavzu. Burg‘ilash qorishmalarini og‘irlashtirish va yengillashtirish

Burg‘ilash qorishmalarini og‘irlashtirish. Burg‘ilash qorishmalarining solishtirma og‘irligini oshirish, nazorat qilish va kimyoviy, kam abrazivli, ekologik jihatdan xavfsizlik darajasiga e’tibor qaratiladi. Og‘irlashtirgich bilan og‘irlashtirishning chegarasi aniqlashtirib boriladi

21-mavzu. Burg‘ilash qorishmalarini yengilashtirish

Burg'ilash qorishmalarining oddiy xolatidan anomallik past xolat xolatdag'i quduqlarni burg'ilab o'tishda suvning solishtirma og'irligidan pasaytirish xolatlari bartaraf etishda solishtirma og'irligini kamytirish, nazorat qilish, kamyoviy, ko'pik xosil qiluvchilar hamda ekologik jihatdan xavfsizlik bo'lishi nazarda tutiladi.

22-mavzu. Kamyoviy reagentlar, komponentlar va ularning tasnifi

Burg'ilash qorishmalarining texnik ko'rsatgichlariga ta'sir qiluvchi omillar. Burg'ilash qorishmalar hossalariga tasiri, suv berishni pasaytiruvchi, qovushqoqlik, peptizatorlar, struktura hosil qiluvchir koagulyatorlar, ko'pik so'ndirgichlar, tuzga turg'un va tuzga turg'unmas, termoturg'un va termoturg'unmas xolatlari o'rganiladi. Ayrim hollarda termotuzga turg'un, termotuzga turg'unmas, organik, va noorganik va elementoorganik tushunchalar ham yoritib beriladi.

23-mavzu. Burg'ilash qorishmalarida sirt-aktiv moddalarining roli.

Burg'ilash qorishmalarining kamyoviy holati, neionogen va ionogen, anionoaktiv va kationoaktiv. Kolloid-strukturasi, molekular yoki murakkab holati, sirt-aktiv moddalar ta'sir mexanizmlar, suyuqlik-gaz (suv-havo) qismi, ko'pik so'ndirish mexanizmining mohiyati yoritib beriladi.

24-mavzu. Burg'ilash qorishmalarini tayyorlash, tozalash, aralashtirish va dezagatsiyalash dastgoxlari

Burg'ilash qorishmalarin tayyorlash va tozalash mexanizmlari. Burg'ilash qorishmalarini tayyorlash, tozalash, har xil jihozlardan foydalilanildi. Ularning mexanik, gidravlik, vertikal, bug'li, birvalli, ikkivallivaboshqajihozlarimavjud.

25-mavzu. Burg'ilash qorishmalarin aralashtirish va gamsizlantirish mexanizmlari

Burg'ilash qorishmalarida ishlatiladigan kamyoviy reagent va komponentlar biri – biri bimlan mukammal aralashtirish, qorishma tarkibiga kirib qoluvchi yo'ldosh gazlardan tozalashda turli xil jihozlardan foydalilanildi. Ularning bir necha turdag'i mashina va mexanizmlar orqali amalga oshiriladi.

26-mavzu. O'zbekistonda sement sanoatini rivojlanishi

Portlansementning tarkibi va asosiy xossalari. Respublikamiz sement zavodlariga bo'lgan talablarni qondirilishi, modernizatsiya qilinishi, neft va gaz sanoati uchun maxsus tayyorlanadigan portlandsementlar va ularning klasifikatsiyasi yaratilishi borasida qilingan ishlar va qilinadigan ishlar to'g'risida.

27-mavzu. Portlandsementni ishlab chiqarish usullari

Respublikamiz va xorij mamlakatlarda ishlab chiqarish usuliga qarab portlandsementlarning turli katgoriyalariga bo'linadi.

Ushbu jarayonlar yengil maydalashga, dozirovka qilishga, gomogenizirlashga va ishlab chiqarish talablaridan kelib chiqqan xolda ishlab chiqariladi. Sement kukunlarini kamchiliklari va afzalliklari tushintirib o'tiladi.

28-mavzu. Sement qorishmasi va sement toshining xossalari

Sement kukuniga qo'yiladigan talablar. Sement kukuni ko'pmineralli va ko'pdispersli menallarning kuydirish orqali xosil bo'lish jarayonlari. Kukun qattiq fazalarning gidratatsiya mahsuloti, portlandsementning gidratatsiyalamagan zarracha qoldiqlaridan, inertli parchalar va reaksiyaga kirmagan faol qo'shimchalardan hamda tog' jinslarining tarkibidagi boshqa minerallardan tashkil topgan.

29-mavzu. Sement qorishmasiga qo'yiladigan texnologik talablar

Sement qorishmasi ma'lum jaryonlardan so'ng tosh xoliga kelishi, asosan ko'pmineralli va ko'pdispersli egiluvchan qovushqoq plastik jismlardir. Sement toshlari tarkibida qattiq, suyuq va gazsimon fazalar mavjud. Qattiq fazalar o'z navbatida

gidratatsiya mahsulotidan, portlandsementning gidratatsiyalanmagan zarracha qoldiqlaridan, inertli parchalar va reaksiyaga kirmagan faol qo'shimchalardan hamda tuz kristallaridan tashkil topgan.

30-mavzu. Yengillashtirilgan sementlar qorishmalar va qo'shimchalar

Yengillashtirilgan sementlar, yengillashtirilgan tamponaj qorishmalar orqali mustahkamlovchi quvurlar birikmasining yuqori qismini sementlashda, anomal qatlam bosimi past bo'lganda (ANPD) va ayrim yutilishlarni bartaraf etish xolatlari o'rganiladi.

31-mavzu. Og'irlashirilgan sementlar qorishmalar va qo'shimchalar

Burg'ilash quduqlarda anomal yuqori qatlam bosimlarida, burg'ilashda yuvish uchun zichligi 1800 kg/m^3 va undan yuqori bo'lgan burg'ilash qorishmalari foydalanilganda og'irlashirilgan tamponajli sementlar qo'llaniladi. Og'irlashtirgichlar sifatida gematit, barit, ferrofosfor, galenit, ferrosiltsiyardan va boshqa og'irlashtiruvchi qo'shimchalardan foydalanish chora tajbirlari ko'rib chiqiladi.

32-mavzu. Maxsus tamponaj sementlar va qorishmalar

Korroziyalanishga turg'un, gilzemistli, og'irlashtirilgan, shlak-gidrogranatli, nikelli shlakportlansementlar va boshqa turdag'i maxsus texnik tasnifga ega sementlar.

33-mavzu. Kengayadigan tamponaj sementlar

Gipsgilzemisli, suv o'tkazuvchan, taranglovchi, kalsiy va magniy oksidi qo'shimchalari yordamidagi, serovodorodga turg'un, gipsli, hidrofobli portlandsementlar va kaytarilgan (obrazchennyyu) neftemulsiyali tamponaj qorishmalar.

34-mavzu. Tamponaj qorishmalar xossalari barqarorlashtirish

Sement qorishmalari ishtirk etuvchi barcha turdag'i qotuvchi materiallar usement qorishmasi tarkibiga kimasligi va kirishi ularning fizik-kimyoviy xarakterini va xossalari aniqlash orqali amalga oshiriladi.

35-mavzu. Tamponaj qorishmalariga qo'shiladigan kimyoviy reagentlar

Tamponaj qorishmasiga qo'shish mumkin bo'lgan kimyoviys raegent va komponetlarni o'chovi, fizikaviy, kimyoviy va geologik tekshirish orqali qo'shimchalar o'rganiladi.

36-mavzu. Tamponaj materiallar, qorishmalar va sement toshlarning fizik-mexanik xossalari o'chash usullari

Namuna tayyorlash tartibi, to'kilma (sochiluvchan) moddalar, massasi va hajmini, tamponaj qorishmalar reologik xossalari, oquvchanligikni, zichlikni, quyuqlashish muddatini, qotish vaqtini, sedimentatsion turg'unlikni, filtrlanishni va sement toshining mustahkamligini aniqlash

37-mavzu. Tamponaj materiallarni tashish, saqlash va aralashtirish uchun qo'llaniladigan texnika va dastgohlar

Sement materiallarni tashish, suv yo'li orqali, avtovoztransport va sochiluvchan va changlanuvchan materiallarni yuklash-tushirish ishlarida texnika havfsizligi

38-mavzu. Sementlash ishlarini tashkil qilish va quduqlarni sementlashga tayyorlash

Quduqlarni sementlashning maqsadi va vazifalari, bir va ikki pog'onali, manjetli, to'g'ri va teskari, murakkablashgan sharoitlarda sementlash ishlarini olib borish

39-mavzu. Sementlash ishlarini murakkabliklar paydo bo'lishi

Quduqlarni sementlash jarayonida asoratlar va ularning turlari, quduq stvolini tayyorlashdagi asoratlar, tamponaj qorishmalar tayyorlashdagi murakkabliklar, quduqlardagi harorat va bosimning o'zgarishi bilan bog'liq asoratlar, sement qorishmalarining vaqtidan oldin quyuqlashishi va qotishi bilan bog'liq va boshqa asoratlar

2.3. Amaliy mashg'ulotlari buyicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlar uchun quydagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Gil va gil kukuniari Tuproqning eritma bilan o'zaro ta'sirini o'rGANISH
 2. Gillarning kolloid kimyoviy xossalari Gil zarrachalaruning koagulyatsiya va flokulatsiya kinetikasini o'rGANISH
 3. Disperssistemalar Dispers materiallarning solushtumsi og'irligini aniqlash va ularning gidrofilligini baxolash
 4. Polimerli burg'ilash eritmalar. Kompleks hosil qilish usuli bilan gilsiz polimer tuzli eritmalar olish usulini o'rGANISH
 5. Burg'ilash eritmalarining kimyoviy xossalari Yuvuvchi sryukhlqlar komponentlarining dispersliyigini va usullarini baxolash
 6. Og'irlashtiruvchi moddalar va ularning xossalari Ekspress usul bilan burg'ilash eritmalaridagi baritning miqdorini aniqlash
 7. Tamponaj materiallari va qorishmalari To'kilmamoddalarining zahligini aniqlash.
 8. Tamponaj qorishmalarining turlari va qo'llanilish shart sharoitlari
 9. Tamponaj qorishmalarining reologikkossalari niamaqlash
 10. Kimyoviy reagent va komponentlarni qo'shilish maqdorini aniqlash
- Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurilmalar bilan jiborlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi lozim. Mashg'ulotlar faol va interfaol usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq

2.4. Laboratoriya ishlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

O'quv rejalarida laboratoriya kiritilmagan

2.5. Kurs ishi (loyihasi) bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Kurs ishi (loyihasi) uchun quydagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Gaz va gazokondensat quduqlarini burg'ilashda foydalaniладigan burg'ilash eritmalar
2. Burg'ilash eritmalarini tayyorlash, kimyoviy tshlov berish va yemirilgan tog'jinsi zarrachalaridan tozalash
3. Quduqlarni sementlashni maqsadi, vazifalari va usullari
4. Quduqningsirkulyatsiontizimidabosimyo' qotilishlarini hisoblash metodikasi
5. Yangi turdag'i burg'ilash eritmalarini neft gaz va gazokondensat konlarini ochishda amalda qo'llanilishi.
6. Burg'ilash eritmalarini qo'llashni iqtisodiy samaradorligini aniqlash.

2.6. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Fanning fundamental fanlar bilan bog'liqligi
2. Qatlamlga ta'sir etuvchi burg'ilash qorishmalari
3. Murakkab sistemadan tashkil topgan burg'ilash qorishmalari
4. Mahsuldar qatlamlarni ochishda burg'ilash qorishmalarini tayyorlash
5. Yuqori haroratlari quduqlarni burg'ilashda burg'ilash qorishmalari
6. Tuzli qatlamlarni ochishda burg'ilash qorishmalarini filtrlanish xossalarni
7. Burg'ilasheritmalarining statik kuchlanishlisiljishi SNS ni yasutkalibarqarorligini

	<p>8. Burg‘ilasheritmasitarkibidagi vodorod ionikonsentratsiyasi rN ni aniqlashtartibi.</p> <p>9. Suv asosidagi burg‘ilash qorishmalarini kimyoviy qayta ishlash.</p> <p>10. Uglevodorod asosidagi burg‘ilash qorishmalar</p> <p>11. Burg‘ilash qorishmalarining reologik, tiksotropik, koagulyatsiyalanish va filtirlanish xossalari.</p> <p>12. Gilli burg‘ilash qorishmalarining texnologik ko‘rsatkichlariga xaroratning ta’siri o‘rganish.</p> <p>13. Tamponaj qorishmalar reologik xossalarini aniqlash.</p> <p>14. Sement qorishmasidan suv ajralishi.</p> <p>15. Sement qorishmasining quyuqlashi..</p> <p>16. Sement qorishmasining qotish vaqt.</p> <p>17. Tamponaj sementining hajmiy o‘zgarishini Mustaqil o‘zlashtiriladigan mavzular bo‘yicha talabalar tomonidan referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.</p>
3.	<p>Fan o‘qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)</p> <p>Fanni o‘zlashtirish natijasida talaba:</p> <ul style="list-style-type: none"> raqamli texnologiyalar tushunchasi va asoslari, raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish omillari haqida <i>tasavvur va bilimga ega bo‘lishi</i>; ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha qo‘llaniladigan burg‘ilash va tamponaj qorishmalarini tayyorlash, ishlatish jaryonlarini loyihalash tizimlari yordamida masalalalarni yechish, modellashtirish, loyihalash xususiyatlarini bilish va ulardan foydalanish <i>ko‘nikmalariga ega bo‘lishi</i>; talaba dasturlashning mazmun-mohiyatini bilish, iqtisodiyot tarmoqlarida ulardan foydalanish, axborot kommunikatsiya texnologiyalari muammolari bo‘yicha yechimlar qabul qilishmalakasiga <i>ega bo‘lishi kerak</i>.
4.	<p>Ta’lim texnologiyalari va metodlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> ma’ruzalar; interfaol keys-stadilar; seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar); guruhlarda ishlash; taqdimotlarni qilish; individual loyihalar; jamoa bo‘lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.
5.	<p>Kreditlarni olish uchun talablar:</p> <p>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to‘la o‘zlashtirish, tahlil natijalarini to‘g‘ri aks ettira olish, o‘rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish vajoriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo‘yicha test topshirish.</p>
6.	<p style="text-align: center;">Adabiyotlar</p> <p>6.1. Asosiy adabiyotlar</p> <p>1. AminovA.M., YodgorovN. Burg‘ilasheritmalari. Toshkent. 1996. 2. Grey Dj. R., Darli G.S.G. Sostav i svoystva burovых agentov</p>

	<p>(promysochnykh jidkostey). M.: Nedra, 1985.</p> <p>4. Bulatov A.I., Penkov A.I., Proselkov Yu.M. Spravochnik po promyshlennym skvajin. M.: Nedra, 1984.</p> <p>5. Reznichenko I.N. Prigotovlenie, obrabotka i ochistka burovых rastvorov. M.: Nedra, 1982.</p> <p>6. Bulatov A.I., Avetisov A.G. Spravochnik injenera po bureniiu. TT. 1,2. M.: Nedra, 1985.</p> <p>7. Gorodnov V.D. Fiziko-ximicheskie metody preduprejdeniya oslojneniy v burenii. M.: Nedra, 1984.</p>
	<p>6.2. Qo'shimcha adabiyotlar</p> <p>8. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollariga bag'ishlangan majlisidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi. // Xalq so'zi gazetasи. 2017 yil 16 yanvar, №11.</p> <p>9. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi - T.: O'zbekiston, 2017. - 46 b.</p> <p>10. Aminov A.M., Maxamatxojaev D.R "Burg'ilash eritmalari" Toshkent, 2006 y.</p> <p>11. Aminov A.M., Sultamuratov Sh.S., Maxamatxojaev D.R., Nazarbekova D.K. "Burg'ilash eritmalari va tamponaj qorishmalari bo'yicha ma'lumotnoma", Toshkent 2012 y.</p>
	<p>6.3. Axborot manbaalari</p> <p>16. www.gov.uz – O'zbekiston Respublikasi xukumat portalı.</p> <p>17. www.lex.uz O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjalari ma'lumotlarimilliy bazasi.</p> <p>18. www.fototerra.ru</p> <p>19. www.inpath.ru</p> <p>20. www.photoart.org.ua</p> <p>21. www.geologiya.ru</p> <p>22. www.Ziyo.net.</p>
7.	<p>Fan sillabusi «Neft va gaz ishi» kafedrasining 202_ yil _____ dagi _____ - sonli, Neft va gaz fakulteti Uslubiy komissiyasining 202_ yil _____ dagi _____ - sonli, institut Uslubiy Kengashining 2021 yil _____ _____ dagi _____ - sonli yig'ilishlarida ko'rib chiqilib tasdiqlangan</p>
8.	<p>Fan(modul) uchun ma'sular: M.M.Murtazaev-"Neft va gaz ishi " kafedrasi dotsenti F.Q.Norinov-"Neft va gaz ishi " kafedrasi o'qituvchisi</p>
9.	<p>Taqrizchilar: P.Allaqlarov -"Neft va gaz ishi" kafedrasi dotsenti A.Muminov- "Jizzakh Petroleum" MChJ QK geologiya bo'limi hodimi</p>